

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKILYUZIV MUHITDA BOLALARGA TA'LIM TARBIYA BERISH

Nosirova Mastura

Namangan Davlat Pedagogika Inistituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4- bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21934170>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari, uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati hamda maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy ta'lim muhitiga integratsiya qilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv muhitda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning zamonaviy metodlari va pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, integratsiya, maxsus ehtiyojli bolalar, differensial yondashuv, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация. В данной статье освещены теоретические и практические основы инклюзивного образования, его социально-педагогическая значимость, а также механизмы интеграции детей с особыми потребностями в общеобразовательную среду. Кроме того, анализируются современные методы эффективной организации учебно-воспитательного процесса в инклюзивной среде и педагогические подходы.

Ключевые слова: инклюзивное образование, интеграция, дети с особыми потребностями, дифференцированный подход, педагогические технологии, социальная адаптация.

Annotation. This article highlights the theoretical and practical foundations of inclusive education, its socio-pedagogical significance, and the mechanisms for integrating children with special needs into the general education environment. Additionally, modern methods of effectively organizing the educational process in an inclusive environment and pedagogical approaches are analyzed.

Keywords: inclusive education, integration, children with special needs, differential approach, pedagogical technologies, social adaptation.

Kirish. Inklyuziv ta'lim-bu imkoniyati cheklangan bolalarni (jismonan, psixik ravishda yoki nutqida cheklovi bor bolalar) umumta'lim (yoki maktabgacha) ta'lim muhitiga jalb qilish, ular uchun teng imkoniyatlar, jamoada o'z o'rnini topish sharoitlarini yaratishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruhlarning o'rni juda muhim: bu bolalarning jamiyatga “dastlabki qadam”ini belgilaydi, boshqa bolalar bilan birga o'qishi, o'yinda qatnashishi, jamoada bo'lishi ijtimoiy moslashuv va hamjamiyatga integratsiyalashuv bo'yicha yordam beradi. Tushuntirish ishlari faqat pedagoglarga emas, balki otaonalar, jamoatchilikka, mahalla (fuqarolar)ga bo'lib, ularni inklyuziv ta'limning maqsadlari, vazifalari, afzalliklari bilan tanishtirish, salbiy stereotiplar, diskriminatsiyaga qarshi yondashuvni o'zgartirish lozim.

Shuningdek, inklyuziv muhitni yaratishda ota-onalar, tarbiyachilar, bolalar, jamoatchilik faol qatnashishi- bu muhitning samaradorligini oshiradi.

Mamlakatimizda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlash ular bilan yakka individual ishlar olib borish, inklyuziv-korreksion ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, ta'lim muassasalarida inklyuziv GURUHLAR tashkil qilish va bunday o'quvchilardan jamiyatga ijtimoiy moslashuvini shakllantirishda muhim ahamiyatli ishlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar sog'lom muhitda, sog'lom bolalar qatorida teng ta'lim olishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bizning har kungi “HARAKAT MEZONIMIZ” bo'lib xizmat qilishi kerak.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashdir.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash vositasi sifatida ham qaralmoqda.

Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Tenglik va kamsitmaslik – har bir bola ta'lim olish huquqiga ega Individuallashtirish – ta'lim jarayonini bolaning ehtiyojiga moslashtirish Integratsiya – barcha bolalarni umumiy muhitga jalb etish Hamkorlik – pedagog, ota-ona va mutaxassislarining birgalikdagi faoliyati Inklyuziv ta'limning nazariy

asoslari pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv muhitning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati Inklyuziv muhit yaratish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: jamiyatda bag‘rikenglik va hurmatni shakllantiradi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi

nogironligi bo‘lgan bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi sog‘lom bolalarda empatiya va yordam berish hissini kuchaytiradi Shuningdek, inklyuziv ta‘lim jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta‘minlashning muhim vositasidir.

Inklyuziv ta‘limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari Inklyuziv muhitni samarali tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1. Moddiy-texnik baza maxsus jihozlar (ramplar, moslashtirilgan partalar) didaktik materiallar va texnologiyalar axborot-kommunikatsiya vositalari

2. Pedagogik tayyorgarlik o‘qituvchilarning malakasini oshirish maxsus pedagogika va psixologiya bilimlariga ega bo‘lish individual yondashuvni qo‘llay olish

3. Psixologik muhit do‘stona va qo‘llab-quvvatlovchi atmosfera bolalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik Ta‘lim-tarbiya jarayonida zamonaviy metodlar

Inklyuziv ta‘limda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: Differensial ta‘lim Har bir bolaning bilim darajasi va imkoniyatiga mos topshiriqlar berish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish.

Interfaol metodlar “Aqliy hujum” “Kichik guruhlarda ishlash” “Rol o‘ynash” usullari Bu metodlar bolalarning faol ishtirokini ta‘minlaydi.

Multisensor yondashuv Ko‘rish, eshitish va harakat orqali o‘rganishni birlashtiradi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar uchun samarali hisoblanadi. Individual ta‘lim dasturi (ITD) Har bir bola uchun alohida o‘quv reja tuzilib, uning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. Pedagogning kasbiy kompetensiyalari Inklyuziv ta‘limda pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak: kommunikativ ko‘nikmalar sabr-toqat va empatiya muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish Pedagogning professional yondashuvi inklyuziv ta‘lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Inklyuziv ta‘lim bu - birgina tarbiyalanuvchidan iborat jarayon emas. U butun jamiyatning hamjihatlikdagi harakati, tushunish va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi. Inklyuziv ta‘limni samarali joriy etish uchun targ‘ibot-tushuntirish ishlari:

Rejali, maqsadli va moslashuvchan bo‘lishi kerak; Ijtimoiy sheriklik va muloqotga asoslanishi lozim; Nazariy va amaliy jarayonlarni uyg‘unlashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga oid qarorlar

O‘zbekiston Respublikasi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.

To‘xtaxodjaeva M.X. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent, 2018.

Shodmonov Sh. Inklyuziv ta‘lim metodikasi. – Toshkent, 2020.

Yusupova N. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, 2019.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi materiallari (inklyuziv ta‘lim bo‘yicha metodik qo‘llanmalar).

UNICEF rasmiy sayti – inklyuziv ta‘lim materiallari